

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DsC. 03/30.12.2020.I.16.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**HOJIYEVA IRODA AVEZOVNA**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOIIY MEDIA  
MARKETING (SMM) FANINI O‘QITISHNING INNOVATSION  
LOYIHALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(iqtisodiyot ta‘lim yo‘nalishi misolida)**

**13.00.02-Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) of a  
pedagogical science**

**Hojiyeva Iroda Avezovna**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketing (SMM) fanini o'qitishning innovatsion loyihalash metodikasini takomillashtirish (iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi misolida)..... 3

**Хожиева Ирода Аvezовна**

Совершенствование инновационных проектных методов обучения социального медиа маркетинга (СММ) в условиях цифровой экономики (на примере экономического образования) ..... 25

**Khojjeva Iroda Avezovna**

Improving innovative project-based methods of teaching social media marketing (SMM) in the digital economy (on the example of economic education)..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DsC. 03/30.12.2020.I.16.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**HOJIYEVA IRODA AVEZOVNA**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY MEDIA  
MARKETING (SMM) FANINI O'QITISHNING INNOVATSION  
LOYIHALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi misolida)**

**13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2023.4.PhD/ped6632 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida  
(www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xakimova Muxabbat Fayziyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**O'sarov Jabbor Eshbekovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Shodiyeva Matlyuba Jo'rayevna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi  
DsC. 03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "10"  
12 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov  
ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin (153 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-  
uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" 11 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "15" 11 dagi 39 — raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**O.D. Djurabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

**Sh.D. Ergashxodjayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa fanlari (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ijtimoiy media marketingning ommalashishida yangi kasblarning paydo bo'lishi, mutaxassislarni tayyorlash jarayonlariga yangicha qarash, internet olamida ishlash uchun yangi kompetensiyalarni o'zlashtirish kabi tendensiyalari kuzatilmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti bergan ma'lumotlarda "ijtimoiy media marketing sohasidagi jarayonlar ta'siri ostida mamlakatlar va mintaqalar aholisining kasbi o'zgarishi, mehnat bozorida mehnat resurslari ta'minoti, odamlarning kasb tanlashdagi xulq-atvori stereotiplari o'zgarib bormoqda"<sup>1</sup> deyilgan. Shu ma'noda bo'lajak iqtisodchilarda ijtimoiy media marketing bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, darslarni loyihalar vositasida amalga oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Jahonda raqamli kasblarning paydo bo'lishi, ijtimoiy media olamida yangicha kasbiy-axloqiy tushunchalarning aktuallashuvi, loyihalar bilan ishlash ko'nikmalarining zarurati bu sohadagi tadqiqotlarning jadallashuviga sabab bo'lmoqda. Xususan, ta'lim jarayonida loyihalar integratsiyasi, raqamli kommunikatsiyada hissiyotlarni boshqarish, ijtimoiy media marketing bilan ishlashda insoniy qadriyatlarni saqlab qolish, o'qish jarayoni uchun ijtimoiy media hamda sun'iy intellektni qo'llashda akademik halollik, filantropik g'oyalarni targ'ib etish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, mutaxassislarni internet olamida paydo bo'layotgan yangi zamonaviy kasblarga tayyorlash, amaliyot hamda ta'lim jarayonini loyihaviy integratsiyalash, talabalarda loyihalash metodikasi asosida o'qitishning mazmun-mohiyatini takomillashtirish, talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lajak iqtisodchilarning raqamli kompetensiyalari va muloqot kompetensiyalarini shakllantirish, o'quv metodik resurslarni yaratishning dolzarb yo'nalishlariga e'tibor kuchaytirildi va salmoqli natijalarga erishildi. Bunda "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini tubdan oshirish"<sup>2</sup> ustuvor vazifalar etib belgilandi. Tadqiqot ishi bo'lajak iqtisodchilarning raqamli kompetensiyalarini akseologik rivojlantirishga oliy ta'lim muassasalarida loyihalash metodikasini qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada

<sup>1</sup> NON-STANDARD EMPLOYMENT AROUND THE WORLD/ Copyright © International Labour Organization 2016.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. № 6(766). 70-modd.

rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ–4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari kabi hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ilmiy tadqiqotlar tahlili mutaxassislik fanlaridan bilimlarni turli metodikalar orqali shakllantirish, o‘zini o‘zi rivojlantirishni yo‘naltirishga tayyorlash masalasi har tomonlama ishlab chiqilganligini ko‘rsatadi. Shu jumladan, pedagogik nazariyada talabalarni loyihalash metodi orqali tayyorlash masalalarini o‘rganish uchun ma‘lum asoslar shakllantirilgan. Mamlakatimiz pedagog olimlaridan A.I.Ashirova, D.N.Ashurova, B.S.Axrarov, N.N.Alimov, Sh.D.Dilshodbekov, G.S.Ergasheva, G.K.Izetayeva, A.F.Ismailov, L.Golish, A.A.Kaxxarov, B.B.Ma‘murov, D.N.Mamatov, M.X.Mahmudov, F.R.Muradova, U.A.Nasritdinova, A.M.Po‘latov, I.M.Rasulov, A.K.Raximov, T.Saparbayev, I.Q.Shamsiyeva, D.I.Shayzakova, D.E.Toshtemirov, M.B.Urazova, J.E.Usarov, J.O.Xakimov, A.Z.Xamroyev<sup>3</sup>larning oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim texnologiyalari, innovatsion loyihalashtirish metodlari, pedagogik hamda axborot texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga tatbiq etishga doir tadqiqotlari amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan ta‘limda loyihalashtirish metodida innovatsion faoliyat muammolari haqida I.V.Abramova, D.S.Asakayeva, A.A.Auzan, K.Barishnikov, Yu.V.Belousov, V.V.Gerasimenko, Yu.I.Gribanov, E.A.Grigoriyeva, G.Golovenchik, S.Glazev, Ye.V.Kruchay, L.V.Lapidus, S.M.Markova, M.M.Morozova, E.A.Makarova, X.P.Matasheva,

---

<sup>3</sup> Ashirova A.I. Axborot tizimlarini loyihalash fanidan dasturiy qobiq yaratish va ta‘limda foydalanish metodikasi (texnika oliy o‘quv yurtlari misolida) Ped.fan.nom. ... diss. – T., 2009. – 138 b. Ashurova D.N. Oliy ta‘lim tizimida innovatsion dasturiy-didaktik majmualar asosida o‘qitishni takomillashtirish (“Algebra va sonlar nazariyasi” fani misolida) 13.00.02(Matematika) diss– T., 2019. – 151 b., Axarrov B.S. Iqtisodiyot yo‘nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda “Axborot xavfsizligi” kursini o‘qitish metodikasi: 13.00.02 –Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Informatika) diss– T., 2019. – 164 b., Alimov N.N Kasb-hunar kollejlari talabalarini texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodikasi (Umumkasbiy fanlarni o‘qitish misolida) 13.00.08 diss– T., 2009. – 229 b. Dilshodbekov Sh.D. Kompyuter grafikasi asosida muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning innovatsion usuli 13.00.02. diss– M., 2020. – 171 s., Ergasheva G.S. Umumiy o‘rta ta‘lim maktab biologiya darsliklari o‘quv materiallarini loyihalashning didaktik asoslari 13.00.02. diss– T., 2006. – 174 s., Izetayeva G.K. Oliy ta‘lim muassasalarida matematik analiz o‘quv fanini modulli texnologiya asosida o‘qitish metodikasi (“Matematika” ta‘limi yo‘nalishi misolida)13.00.02.diss– T., 2018. – 124b , Ismailov A.F. Akademik litseylarda tarix fanini o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish 13.00.02.diss– T., 2018. – 169b. , Kaxxarov A.A. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalar fazoviy tasavvurini multimediali kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirish 13.00.02.diss– T., 2021. – 184b. Ma‘murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta‘lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi,13.00.01.diss– T., 2018. – 264b., Mamatov D. N. Elektron axborot ta‘lim muhitida kasbiy ta‘lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish,13.00.06 diss– T., 2017. – 143b., Mahmudov M. X. Ta‘limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari,13.00.01.diss–T.,2004.–265b., Muradova F.R. Kasb-hunar kollejlarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish, 13.00.02.diss–T.,2018.–148b., Nasritdinova U.A. Kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda uch o‘lchamli modellashirish vositasidan foydalanish metodikasi, 13.00.02. diss–T., 2018.–160b., Po‘latov A. M. Talabalar bilimi darajasini prognoz qilish va undan foydalanish metodikasi (“Informatika va informatsion texnologiya” fanini o‘qitish misolida) 13.00.02. diss–T.,2005.–140b., Rasulov I.M. Talabalarining loyihalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish, 13.00.01. diss–T.,2018.–196b., Raximov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (“Evolutsion ta‘limot” fanini o‘qitish misolida) 13.00.02. diss–T.,2019.–296b., Saparbayev T. Akademik litseylarda fizika o‘qitishni takomillashtirishning noan‘anaviy metodikasi (aniq fanlar yo‘nalishi misolida) 13.00.02. diss–T.,2011.–156b., Shamsiyeva I.Q. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalash, 13.00.01. diss–M.,2019.–168b, Shayzakova D.I. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullar asosida kimyo fanini o‘qitish mazmunini takomillashtirish (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari misolida), 13.00.02. diss–T., 2020.–194b., Toshtemirov D.E. Kasb-hunar kollejlarda “informatika”ni o‘qitish uchun ta‘lim portali yaratish va undan foydalanish metodikasi, 13.00.02. diss–T.,2012.–150b. Xamroyev A.R. Ona tili ta‘limida talabalarining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish, 13.00.05. diss–T.,2020. –248b.

V.Obidenkova, O.N.Ryabova, K.L.Svechnikov, O.I.Timofeeva, G.A.Zabelina, O.V.Chernova<sup>4</sup>ning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Xorijlik olimlardan M.E.Grin, Ch.R.Gariyees, D.R.Jonson, M.Jennifer, J.R.Mergendoller, K.L.Mahaffey, T.L.Tomas, D.Tapskott, J.L.Vulf, S.J.Xartzler, J.A.Xetzberg, R.A.Sher<sup>5</sup> tadqiqotlarida loyihalash metodikasini rivojlantirish, texnologik tayyorgarlik malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan.

Biroq, alohida ta‘kidlash lozimki, bu ishlar iqtisodiy oliy ta‘lim muassasalari talabalarida ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish o‘quv tarbiya jarayonining yagona tizimiga aylantirilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-049 raqamli “Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” (2017-2021yy.) mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketing (SMM) fanini o‘qitishning innovatsion loyihalash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash metodikasi orqali o‘qitishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingni (SMM) o‘qitishning innovatsion loyihalash metodikasini takomillashtirish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingni (SMM) loyihalash asosida o‘qitishning modelini takomillashtirish;

innovatsion loyihalash metodikasi orqali ijtimoiy media marketingni o‘qitishni rivojlantirish samaradorligini oshirish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketing (SMM) fanini o‘qitishning innovatsion loyihalash metodikasini takomillashtirish belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Guliston davlat universitetlarining 425 nafar talabalari jalb etilgan.

---

<sup>4</sup> Морозова М.М. Метод проектов как феномен образовательного процесса в современной школе, 13.00.01. дисс–М.,2005.–231б, Макарова Э.А. Профессиональная подготовка научно-педагогических кадров в аспирантуре в условиях гибридинизации образования, 13.00.08. дисс–М.,2021.–203б, Маташева Х.П. Совершенствование маркетинговой деятельности при использовании Интернет-технологий, 08.00.05.дисс–М.,2009.–186б Обиденкова В.К. Интернет-проектирование как средство профессиональной подготовки студентов педагогических вузов, 13.00.08. дисс–М.,2017.–254б., Рябова О.Н. Организационно-педагогические условия использования метода проектов в учреждениях дополнительного образования тема, 13.00.01. дисс–Т.,2004.–247б., Свечников К.Л. Реализация метода проектов в гуманитарной науке, 13.00.01. дисс–М.,2004.–235с., Тимофеева О.И. Другой в философско-антропологическом контексте: проблема различия, 13.00.02. дисс–М.,2018.–269с.,Забелина Г.А. Метод проектов в системе высшего профессионального образования, 13.00.01. дисс–М.,2009.–168с., Чернова О.В. Краевие задачи для эллиптических систем первого порядка на плоскости, 01.01.02. дисс–М., 2019.–103с., Чернова О.В. Краевие задачи для эллиптических систем первого порядка на плоскости, 01.01.02. дисс–М., 2019.–103с.

<sup>5</sup> Social Media Technology Usage in Project-Based Learning: A Case Study”.diss– USA., 2020. – 230б., Tapskot D. (1998). Growing Up Digital. The Rise of the Net Generation. New York: McGraw Hill. xii +338. ISSN 0-07-063361-4. Web site: www.growingupdigital.com, Woolf, "The Impact of Project-Based Learning on Student Attitudes and Perceptions of Science" 2007, University of California, Berkeley, 13 p. Scherr, "Project-Based Learning in Physics: A Study of Student Understanding and Engagement" 2008, University of California, Berkeley, 16 p.

**Tadqiqotning predmeti:** raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketing (SMM) fanini o‘qitishning innovatsion loyihalash metodikasini takomillashtirishning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari, vositalari, shakl va metodlari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik va ilmiy - metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa so‘rovi, test, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash orqali o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari ijtimoiy media marketingni organik ommalashtirish mohiyati brendga sadoqat trendlarini aniqlash asosida ochib berilgan;

ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash metodikasi talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini jamiyatga g‘amxo‘rlik qila oladigan, foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatadigan brend yoki mahsulot atrofida hamjamiyat yaratishning raqamli-tezkor imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

ijtimoiy media marketingni loyihaviy o‘qitish modeli talabalarda raqamli kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash, loyihalar bilan ishlash darajasini ijobiy brendlar namunasi orqali insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

innovatsion loyihalash orqali ijtimoiy media marketingni o‘qitishni rivojlantirish samaradorligi talabalarning raqamli muloqot jarayonida hissiy-emotsional empatiyasini virtual guruh loyihalarida birgalikda ishlatish asosida oshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

innovatsion loyihalash metodikasidan foydalanish orqali rivojlantirishga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy ishlanmalar yaratilgan va amalda qo‘llangan;

oliy ta‘lim muassasalari barcha ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi fanlarni o‘qitishda innovatsion loyihalash metodikasi orqali darslarni tashkil etish loyihasi, loyihalash metodikasini takomillashtirish modeli va algoritmi ishlab chiqilgan hamda o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan;

“Innovative pedagogy”, “Zamonaviy ta‘limda kreativ texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmalar nashr etilgan. Interaktiv ta‘lim asoslari nomli elektron o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** foydalanilgan yondashuvlar, usullar va texnologiyalar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlarni ilmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi matematik-statistik tahlil vositasida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, raqamli iqtisodiyot sharoitida fanlarni innovatsion loyihalash metodikasi orqali o‘tish jarayonini tizimli va izchil tashkil etgan holda talabalarning darsga motivatsiyasini va faolligini rivojlantirishning mazmun va mohiyati, asosiy tushunchalari, zaruriyati, ta‘limning sifati va samaradorligiga ta‘siri nazariy-ilmiy asoslanganligi hamda zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalar va



vositalar bilan boyitilganligi bo‘lib, bu ta‘lim nazariyasining rivojlanishiga ma‘lum hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqotlar natijasida talabalarning raqamli-muloqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi ijtimoiy media vositalari orqali o‘qitish loyihasi, faolligini rivojlantirish modeli va algoritmi, smart texnologiyalar bilan o‘qish modeli ishlab chiqilgan va ular o‘quv jarayonida qo‘llanmoqda. Tadqiqot natijalaridan oliy ta‘lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, loyiha ishlab chiqish va o‘tkazishda, fandagi motivatsiyasi va faolligini rivojlantirishda, umuman olganda ta‘lim ishtirokchilarini “o‘qish, izlanish, yaratish, o‘qitish va o‘rgatish” tamoyillari bo‘yicha faoliyat yuritishida foydalanish mumkin.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:**

raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash orqali o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari ijtimoiy media marketingni organik ommalashtirish mohiyati brendga sadoqat trendlarini aniqlashga oid takliflar 60112400-“Professional ta‘lim” (60310100-Iqtisodiyot), 60112400-“Professional ta‘lim” (Menejment-60411200), bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Innovative pedagogy” nomli o‘quv qo‘llanma (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi tomonidan 10.11.2023-yil 02/01-01-157-sonli ma‘lumotnomasi) mazmuniga singdirilgan. Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash orqali o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari ijtimoiy media marketingni organik ommalashtirish mohiyati brendga sadoqat trendlarini aniqlashga oid takliflardan foydalanib o‘quv faoliyatini sifat jihatdan takomillashtirish imkoniyati yaratilgan;

ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash metodikasi talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini jamiyatga g‘amxo‘rlik qila oladigan, foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatadigan brend yoki mahsulot atrofida hamjamiyat yaratishning raqamli-tezkor imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirishga oid takliflar 60112400-“Professional ta‘lim” (60310100-Iqtisodiyot), 60112400-“Professional ta‘lim” (Menejment-60411200) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Zamonaviy ta‘limda kreativ texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi tomonidan 10.11.2023-yil 02/01-01-157-sonli ma‘lumotnomasi) mazmuniga singdirilgan. Natijada, ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash metodikasi talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini jamiyatga g‘amxo‘rlik qila oladigan, foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatadigan brend yoki mahsulot atrofida hamjamiyat yaratishning raqamli-tezkor imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirish imkoniyati kengaytirilgan;

ijtimoiy media marketingni loyihaviy o'qitish modeli talabalarda raqamli kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash, loyihalar bilan ishlash darajasini ijobiy brendlar namunasi orqali insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar 60112400-“Professional ta‘lim” (60310100-Iqtisodiyot), 60112400-“Professional ta‘lim” (Menejment-60411200) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Zamonaviy ta‘limda kreativ texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi tomonidan 10.11.2023-yil 02/01-01-157-sonli ma‘lumotnomasi) mazmuniga singdirilgan. Natijada, ijtimoiy media marketingni loyihaviy o‘qitish modeli talabalarda raqamli kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash, loyihalar bilan ishlash darajasini ijobiy brendlar namunasi orqali insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirish asosida takomillashtirish imkoniyati kengaytirilgan;

innovatsion loyihalash orqali ijtimoiy media marketingni o‘qitishni rivojlantirish samaradorligi talabalarining raqamli muloqot jarayonida hissiy-emotsional empatiyasini virtual guruh loyihalarida birgalikda ishlatish asosida oshirishga oid takliflar 60112400-“Professional ta‘lim” (60310100-Iqtisodiyot), 60112400-“Professional ta‘lim” (Menejment-60411200), bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Innovative pedagogy” nomli o‘quv qo‘llanma (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi tomonidan 10.11.2023-yil 02/01-01-157-sonli ma‘lumotnomasi) mazmuniga singdirilgan. Natijada, foydalanilgan takliflar asosida innovatsion loyihalash orqali ijtimoiy media marketingni o‘qitishni rivojlantirish samaradorligi talabalarining raqamli muloqot jarayonida hissiy-emotsional empatiyasini virtual guruh loyihalarida birgalikda ishlatish asosida oshirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan. Respublika ilmiy nashrlarida 8 ta, 4 tasi respublika ilmiy jurnallarida va 4 tasi xorijiy jurnallarda maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 125 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor

yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, eʼlon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari oʻz aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oliy taʼlim muassasalari talabalarida ijtimoiy media marketing fanini innovatsion loyihalash metodikasi orqali oʻqitishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda boʻlgʻusi iqtisodchilarni raqamli iqtisodiyotga tayyorlash - ijtimoiy pedagogik muammo sifatida, oliy taʼlim muassasasi talabalarida ijtimoiy media marketingni loyihalash metodi orqali oʻqitishning mezonlari va parametrlari, loyihalash metodikasi orqali boʻlajak iqtisodchilarning ijtimoiy media marketing haqidagi shakllangan bilim, malaka, koʻnikmalarining hozirgi holati bayon qilingan.

Bugungi kunda Respublikamizdagi oliy taʼlim muassasalarida taʼlimning sifati va samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda, zero raqamli iqtisodiyotni jadal surʼatlarda oshib borishi oliy taʼlimdan faqat mutaxassislikka yoʻnaltirilgan tor doiradagi mutaxassislarni emas, balki har taraflama keng bilimlarga ega, yaʼni universal mutaxassislarni tayyorlashni talab qilmoqda. Zamonaviy jamiyat hayotning barcha jabhalariga kirib borayotgan raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishini boshidan kechirmoqda. Bu boʻlajak iqtisodchilarni raqamli iqtisodiyot bilan bogʻliq yangi muammolar va talablarga tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Biroq, bu jarayon murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo boʻlib, alohida eʼtibor va talabalarni oʻqitish va tayyorlashning samarali strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Boʻlajak iqtisodchilarni raqamli iqtisodiyotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammosi ham talabalar va oʻqituvchilarning qarshiligini yengish zarurati bilan bogʻliq. Ulardan baʼzilar yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyor boʻlmasligi yoki amaliy ahamiyatini koʻrmasligi mumkin. Shu bois talabalarni ragʻbatlantirish va oʻquv jarayoniga jalb etishning samarali usullarini ishlab chiqish, shuningdek, oʻqituvchilarni qoʻllab-quvvatlash va malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihalash metodikasini qoʻllash juda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Yurtimiz olimlaridan J.O.Xakimov ilmiy ishida “loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirilgan kompleks darajalarini ajratib koʻrsatib, ularni past, oʻrtacha, keng miqyosli turlarga boʻladi va virtual laboratoriya sharoitida loyihalash konstruktorlik topshiriqlar tizimini taklif etadi”<sup>6</sup>. Bizning fikrimizcha, ushbu taklif maqsadga muvofiq boʻlib, bunday yondashuv talabalarning modulli, kompetensiyaviy, mantiqiy koʻnikmalarini yanada takomillashtiradi. A.R.Xamroyevning tadqiqot ishida “oʻqish faoliyatini munosabatlar nuqtayi nazaridan ikki bosqichga ajratadi. Birinchi bosqich bu shartli belgilar bilan toʻqnashuvdir, ikkinchi bosqichni esa, shartli belgilar yordamida berilgan mazmunni oʻziga oid sohaga koʻchirish deb koʻrsatgan”<sup>7</sup>. Bizning

<sup>6</sup> Xakimov J.O. Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish, 13.00.05. diss–T.,2021.–218b.

<sup>7</sup> Xamroyev A.Z. Ona tili taʼlimida talabalarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish, 13.00.05. diss–T.,2020. –248b.

fikrimizcha, munosabatlarga berilgan olimning ushbu taʼrifini oʻquv faoliyatining har qanday bosqichida qoʻllash mumkin, zero iqtisodiyot sohasida ham taʼlim olayotgan talabalar avvalo iqtisodiyotga oid termin va kategoriyalarni shartli belgilar koʻrinishida qabul qilib olishadi soʻngra esa, ushbu oʻrganganlari taʼsiri oqibatida oʻzlari faoliyat olib borayotgan sohada qoʻllashlari mumkin.

I.Q.Shamsiyevaning tadqiqot ishida esa, “fanlarni oʻtishda loyihalash jarayonida talabalarning mantiqiy fikrlashini oshirishga xizmat qiladigan, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodikalarni qoʻllashni tavsiya etadi”<sup>8</sup>. Olimning ushbu fikri boʻljak iqtisodchilarni ham zamon bilan hamnafas keng dunyoqarashli va mantiqiy fikrlay oladigan kadrlar qilib tarbiyalash uchun dolzarb vazifa boʻlib, hisoblanadi.

A.I.Ashirovaning ilmiy ishida “talabalarning loyiha oldi tahlili, loyihalash vosita va usulini tanlash, masalaning qoʻyilishi, axborot taʼminoti va axborotni qayta ishlash texnologiyasini yarata olish qobiliyatlariga alohida urgʻu berilgan. Ammo taʼkidlash joizki, ushbu ishlanmalar faqatgina boʻlgʻusi pedagoglarning oʻqish faoliyatlariga yoʻnaltirilgan”<sup>9</sup>. Shu nuqtayi nazardan ushbu koʻnikmalarni boʻlgʻusi iqtisodchilarda ham takomillashtirish zarurligi bizning tadqiqotimizning yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. M.X.Maxmudov “boʻlgʻusi mutaxassislarni tayyorlashda didaktik loyihalashni ijtimoiy buyurtma sifatida tasavvur etishni taklif etadi”<sup>10</sup>.

“*Raqamli kompetensiya*” atamasi Yevropa Komissiyasi tomonidan 2006-yilda “*Yevropa Ittifoqi va raqamli savodxonlik*” dasturi doirasida kiritilgan. *Raqamli kompetensiya* – bu hayotning turli sohalarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar yigʻindisidir. U kompyuter, dasturiy taʼminot, internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, multimedia texnologiyalari va boshqa raqamli vositalar bilan ishlash qobiliyatini oʻz ichiga oladi. *Raqamli kompetensiya* bugungi dunyoda muhim kompetensiya hisoblanib, koʻplab kasblarda ishlash va jamoat hayotida ishtirok etish uchun talab qilinadi.

Bizning taʼrifimizcha, *raqamli kompetensiya* – bu turli muammolarni hal qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati. U nafaqat dasturlar va ilovalarni bilish, balki axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish va olingan maʼlumotlar asosida qaror qabul qilish qobiliyatini ham oʻz ichiga oladi.

Raqamli kompetensiyaning tarkibiy qismlarini ajratib koʻrsatish muhim hisoblanadi, zero ular kadrlar tayyorlashda muhim unsur hisoblanadi (1-rasm).


Ijtimoiy media marketingi fanining paydo boʻlish tarixi 2000-yillarda birinchi ijtimoiy tarmoqlar paydo boʻlishi bilan boshlanadi. Oʻsha paytda koʻpchilik kompaniyalar ijtimoiy tarmoqlardan faqat tasvirni qoʻllab-quvvatlash va obroʻni boshqarish uchun foydalangan. Biroq, tez orada ijtimoiy tarmoqlar toʻgʻridan-toʻgʻri marketing uchun ham ishlatilishi mumkinligi maʼlum boʻldi. Bu yoʻnalishdagi dastlabki qadamlar 2005-yilda MySpace kompaniyasi Myads dasturini ishga

<sup>8</sup> Shamsiyeva I.Q. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalash, 13.00.01. diss–M.,2019.–168b.

<sup>9</sup> Ashirova A.I. Axborot tizimlarini loyihalash fanidan dasturiy qobiq yaratish va taʼlimda foydalanish metodikasi (texnika oliy oʻquv yurtlari misolida) Ped.fan.nom. ... diss. – T., 2009. – 138 b.

<sup>10</sup> Mahmudov M. X. Taʼlimni didaktik loyihalashning nazariy asoslari,13.00.01.diss–T.,2004.–265b.

tushirganida qo'yildi, bu esa korxonalariga foydalanuvchi sahifalarida reklama qilish imkonini berdi. Tez orada Feysbuk, Twitter va LinkedIn kabi boshqa ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'ldi.



**1-rasm. Raqamli kompetensiyaning tarkibiy qismlari<sup>11</sup>**

2010-yilda ijtimoiy media marketingi marketing bo'yicha o'quv dasturlariga kiritilgan alohida intizomga aylandi. Xuddi shu yili birinchi ijtimoiy media marketing assotsiatsiyasi, ijtimoiy media klub tashkil etildi. Vaqt o'tishi bilan ijtimoiy media marketingi tobora ommalashib, talabga ega bo'ldi. Kompaniyalar o'z mahsulotlari va xizmatlarini ilgari surish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalana boshladilar, marketologlar esa ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlashning yangi strategiyalari va usullarini ishlab chiqishni boshladilar.

Bugungi kunda ijtimoiy media marketingi brendlar va mahsulotlarni ilgari surishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy media marketingini organik ommalashtirish:

Ijtimoiy media marketingining organik ommalashuvi obunachilar bilan haqiqiy aloqa orqali ijtimoiy tarmoqlarda brend mavjudligining tabiiy o'sishi va tarqalishini anglatadi. Shu ma'noda brendning sodiqligini shakllantirish mijozlar bilan mazmunli aloqalarni yaratish, qimmatli kontentni taqdim etish va platformalar bo'ylab doimiy brend obro'sini saqlashni o'z ichiga oladi.


Brendga sodiqlik tendensiyalari: shaxsiylashtirish: kontentni individual imtiyozlar va xatti-harakatlarga moslashtirish mijozlarning sodiqligini oshirishi va takroriy biznesni boshlashi mumkin; haqiqiylik: iste'molchilar o'z auditoriyasi bilan shaffof muloqot qiladigan va chinakam ishtirok etadigan haqiqiy brendlarga tobora ko'proq jalb qilinmoqda; hamjamiyatni barpo etish: obunachilar o'rtasida hamjamiyat tuyg'usini rivojlantirish brendga sodiqlikni kuchaytirilishi va brendni himoya qilishni

<sup>11</sup> Muallif tomonidan takomillashtirilgan.

rag'batlantirishi mumkin; ijtimoiy media marketing sa'y-harakatlarini bir nechta kanallar bo'ylab birlashtirish uzluksiz mijozlar tajribasini yaratishi va brendga sodiqlikni kuchaytirishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy media marketingni innovatsion loyihalash metodikasi orqali o'qitishning mazmuni, shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda innovatsion loyihalash metodikasi orqali ijtimoiy media marketingni onlayn o'qitishning shart-sharoitlari, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning loyihalash metodikasi asosida ijtimoiy media marketing haqidagi bilimlarining shakllanish ko'nikmalari va metodlari, innovatsion loyihalash metodikasining nazariy modeli kabilar bayon qilingan.

Ijtimoiy media marketingi bugungi kunda dunyoviy ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda tadqiqot olib borishga teng bo'lgan marketing tarmog'idir. Ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotning bir qismidir. Feysbuk, Instagram, Twitter, Yutub, Line, LinkedIn, Pinterest va boshqalar kabi virtual platformalar orqali o'zaro aloqalar ijtimoiy media texnologiyalarining barcha turlariga yo'naltirilganligi va xatti-harakatlarining ta'sirchan kuchga egaligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, ta'sirchan platformalar insonlar orasida juda mashhur. Hozirgi kunda ko'plab mijozlar o'z vaqtlarini ma'lumot qidirishdan tortib to mahsulotni yakuniy xarid qilishgacha bo'lgan turli maqsadlarda ijtimoiy va raqamli tarmoqlarda o'tkazishmoqda. Ushbu o'zgarishlarga javoban, marketologlar o'zlarining reklama byudjetlarining katta qismini raqamli marketingga sarflamoqdalar. Shuning uchun bunga talab ortib bormoqda. Shu sababli, ushbu istiqbolda masofaviy ta'lim shartlarini o'rganish kerak.



**2-rasm. Ijtimoiy media marketingni o'qitish bo'yicha loyiha bosqichlari<sup>12</sup>**

Ijtimoiy media marketing fanini o'qitishda loyihalashning quyidagi bosqichlarini aniqladik (2-rasm.)

<sup>12</sup> Muallif tomonidan takomillashtirilgan.

Ijtimoiy media marketingini o'rgatish bo'yicha loyihalar odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Maqsadli auditoriyani tahlil qilish: talabalar ma'lum bir brend yoki kompaniyaning maqsadli auditoriyasi kim ekanligini va ularni jalb qilishda qanday marketing strategiyalari samarali bo'lishi mumkinligini aniqlashni o'rganadilar.

Strategiyani ishlab chiqish: bu bosqichda talabalar muayyan brend yoki kompaniya uchun uning maqsadlari va maqsadli auditoriya ehtiyojlarini hisobga olgan holda ijtimoiy media strategiyasini ishlab chiqishni o'rganadilar.

Kontent yaratish: talabalar maqsadli auditoriyaning strategiyasi va manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, matnlar, fotosuratlar va videolar uchun kontent yaratishni o'rganadilar.

Kontentni joylashtirish: bu bosqichda talabalar Feysbuk, Instagram, Twitter va LinkedIN kabi turli ijtimoiy platformalarda kontentni qanday joylashtirishni o'rganadilar.

Natijalarni tahlil qilish: talabalar o'zlarining strategiyasi samaradorligini aniqlash va kerakli tuzatishlarni kiritish uchun layklar, sharhlar, ulashishlar va konvertatsiyalar soni kabi ko'rsatkichlardan foydalangan holda ijtimoiy media kompaniyalari natijalarini tahlil qilishni o'rganadilar.

Optimallashtirish: ushbu bosqichda talabalar samaradorligini oshirish va yaxshi natijalarga erishish uchun o'zlarining bilim va tajribasidan foydalangan holda ijtimoiy media kompaniyalarini optimallashtirishni o'rganadilar.

Shunday qilib, bo'lg'usi iqtisodchi talabalarining ijtimoiy media marketing sohasidagi bilim, ko'nikma va qobiliyatlarining sifati ta'lim sohasidagi asosiy vazifalardan birini tashkil etadi. Bu sifatni baholash uchun turlicha loyihalash usullaridan foydalanish mumkin.

Virtual guruh loyihalarida hissiy empatiyani oshirish: tomoshabin shaxsini rivojlantirish: talabalarni maqsadli auditoriya personajlarining hissiy nuanslarini o'rganishga undash, kontent yaratish strategiyalari haqida ma'lumot beruvchi empativ tushunchalarni rivojlantirish; birgalikda kontent yaratish: talabalar ijtimoiy media kampaniyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun hamkorlik qiladigan virtual guruh loyihalariga yordam berishi, xabar almashish va vizuallarga hissiy empatik kontentni kiritishni ta'kidlash; fikr-mulohaza va analiz: talabalarni o'z kampaniyalarining hissiy ta'sirini baholashga undaydigan konstruktiv qaytar aloqa munosabatlarini va aks ettiruvchi mashqlarni targ'ib qilish, tomoshabinlar ishtirokini chuqurroq tushunishga yordam berish.

